



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun

237-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**G'uzor tumani obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi
asosida yer maydonini ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdag'i "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-son va G'uzor tumani Obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 4-maydagi 120-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo'jaligi bosh boshqarmasining ijobjiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobjiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. G'uzor tumani obodonlashtirish boshqarmasiga tumanidagi avtomobil ichki yo'llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 20,52 hektar tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G'.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiy lashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanimishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanimaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
237-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil Tashabbusli byudjet doirasida ichki yo‘l ob’ektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida
ma’lumot**

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
	Jami		34,2	20,52
1	G‘uzor tumani	"Mevazor" MFY ichki yo‘llari	3,8	2,28
2		"Eskibog“" MFY ko‘chalari	3,8	2,28
3		"Jarariq" MFY Oqtosh va Quduq qishloqlarining ichki yo‘llari	3,8	2,28
4		"Xalqabod" MFY ko‘chasi	3,8	2,28
5		"Gulshan" MFY Ezgulik, Fayz va Baxt ko‘chalari	3,8	2,28
6		"Do‘ltali" MFY Do‘ltali qishlog‘i ichki ko‘chalari	3,8	2,28
7		"Dashtobod" MFY ichki yo‘llari	3,8	2,28
8		"Sherali" MFY Obod Zamin ko‘chasi	3,8	2,28
9		"Chaqar" MFY ichki ko‘chalari	3,8	2,28